



BOLALAR O'QUV FAOLIYATIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Nizomiy nomidagi O'zMPU

“Psixologiya” kafedrasio'qituvchisi

Saidova Nargiza Ismatulla qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU

1-bosqich talabasi

Ahmadvova Anora Akmaljon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar o'quv faoliyatida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tasviriy faoliyatning estetik tarbiya, ijodiy fikrlash, nutq va tafakkur, mayda motorika hamda psixologik rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarning ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy faoliyat, ijodkorlik, estetik tarbiya, bolalar rivoji, rasm chizish, obrazli fikrlash, san'at, ta'lim, rang, kompozitsiya, tasavvur, motorika, tafakkur.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль и значение занятий по изобразительной деятельности в учебной деятельности детей. Анализируются влияние изобразительного творчества на эстетическое воспитание, развитие воображения, речи, мышления, мелкой моторики и эмоционального состояния. Также подчеркивается педагогическая важности изобразительной деятельности в процессе обучения.

Ключевые слова: изобразительная деятельность, творчество, эстетическое воспитание, развитие детей, рисунок воображение, искусство, обучение, композиция, мелкая моторика, мышление.



Annotation: *This article highlights the role and importance of visual arts activities in children's learning processes. It analyzes the impact of artistic activities on aesthetic education, creative thinking, speech and emotional growth. The pedagogical significance of visual arts in early education is also emphasized.*

Keywords: *visual activity, creativity, aesthetic education, child development, drawing, imagination, art, learning, composition, fine motor skills, thinking.*

Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim jarayonida faoliyat mashg'ulotlari bolalar ririni tutadi. Rasm chizish bo'yash yasalish va tasviriy ijod jarayoni bolaning nafaqat estetik didini shakllantiradi, balki uning nutqi, tafakkuri, mayda motorikasi, tasavvuri va emotsional holatini rivojlantiradi. Shuning uchun tasviriy faoliyat ta'lim jarayoning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bolalarning ijodkorlik salohiyatini yuzaga chiqaradi. Bunday mashg'ulotlar orqali bolalar ranglarni idrok etish, shakl va proporsiyani farqlash, kompozitsiya tuzish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bu esa ularning umumiy intellektual rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu murakkab va sarmahsul jarayonda tasviriy faoliyat, ya'ni rasm chizish, loy ishlash, applikatsiya, plastilindan yasash kabi mashg'ulotlar alohida o'rin tutadi. Tasviriy san'at bolalarning ruhiy olami, emotsional holati va shaxsiy rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimida ijodiy fanlar, jumladan san'at fanini kuchaytirish, umumt'lim maktablari bilan ijodiy maktablar faoliyatini uyg'unlashtirish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilanadi. Bu esa bolalar tasviriy faoliyati rivojiga davlat miqyosida yondashilayotganini anglatadi. Shu bois hozirgi ta'lim tizimida tasviriy faoliyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rasm chizayotgan bola ranglar, shakllar va obrazlar orqali o'z dunyoqarashini ifoda etadi. Bu jarayon uning tasavvurini kengaytiradi, ijodiy fikrlashini kuchaytiradi. **Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev** ta'kidlayotgan "ijodkor yoshlarni tarbiyalash" g'oyasi aynan shu jarayon orqali amalga oshadi. Chizgan rasmini tushuntirish jarayoni bolaning mulohaza yuritish, gapirib berish va fikrni



izchil bayon qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Rang tanlash, kompozitsiya qurish kabi jarayonlar esa mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Tasviriy faoliyat bolaning eng tabiiy ijodiy ifoda vositasidir. Bola tasavvur qilgan obrazni qog'ozga tushurish jarayonida uning ijodkorlik ko'lami kengayadi. Tasavvurni boyitish esa keying ta'lim bosqichlarida ham katta ahamiyatga ega. Rasm chizish jarayoni bolaga ichki his-tuyg'ularini ifoda etish imkonini beradi. Ba'zi bolalar gapira olmaydigan hissiyotlarini rasm orqali yetkazadi. Bu psixologik yengillik yaratadi va bolaning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi. Tasviriy faoliyat bolalar uchun o'z his-tuyg'ularini, kechinmalarini va xayollarini ifoda etishning noyob vositasidir. Ba'zan so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan xursandchilik, xavotir, qo'rquv kabi hislarni rasmda aks ettirish orqali bola ularni boshqarishni o'rganadi. Bu esa hissiy barqarorlikni shakllantiradi va o'z-o'zini anglashga yordam beradi. Guruhda birgalikda rasm chizish yoki jamoaviy kompozitsiyalar yaratish orqali bolalar hamkorlik qilish, boshqalarning g'oyalarini hurmat qilish, kelishish va muloqot qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Chizish, bo'yash, kesish-yopishtirish kabi mashg'ulotlar bolaning qo'l mushaklari va barmoqlaridagi mayda motorika harakatlarini rivojlantiradi. Bu esa keyinchalik yozuv ko'nikmalarini egallashga katta yordam beradi. Tasviriy faoliyat bolalarning ichki kechinmalarini ifoda etishiga yordam beradi. Bola o'z tuyg'ularini ranglar va tasvirlar orqali ifodalab, psixologik yengillikka erishadi. Bu mashg'ulotlar stressni kamaytiradi, tinchlantiradi va o'ziga bo'lgan ishochni oshiradi.

Guruhda rasm chizish, birgalikda san'at ishlari yaratish bolalarda hamkorlik, muloqot, bir-birini hurmat qilish kabi ijtimoiy sifatlarini rivojlantiradi. Ular fikr almashishni, o'z ishini himoya qilishni, boshqalarning ishiga baho berishni o'rganadi. Yurtimizda so'nggi yillarda: Yangi san'at maktablari ochilmoqda; Ijodiy to'garaklar kengaymoqda; Maktablarda san'at fani kuchaytirilmoqda; Maktabgacha ta'lim muassasalarida rasm chizish uchun maxsus metodikalar joriy etilmoqda; Bu islohotlarning barchasi **Prezident Sh.Mirziyoyev** ilgari surayotgan:



“Yoshlarimizning ijodiy va intellektual salohiyatini to’liq ro’yobga chiqarish” g’oyasining amaliy ko’rinishidir. Maktabgacha ta’lim va boshlang’ich ta’limda tasviriy faoliyat darslari bolalarni nafaqat san’atga, balki maktab hayotiga moslashtirishda ham muhim rol o’ynaydi. O’qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar (interfaol metodlar, kreativ topshiriqlar, didaktik o’yinlar) qo’llanilganda, tasviriy faoliyat bolaning umumiy rivojlanishiga yanada katta ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki tasviriy faoliyat mashg’ulotlari bolalar o’quv faoliyatida keng qamrovli va ko’p qirrali ahamiyatga ega. Bu mashg’ulotlar bolaning estetik didi, ijodkorligi, nutqi, tafakkuri, motorikasi va psixologik holatini rivojlantiradi. Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim tizimida tasviriy san’at darslarini samarali tashkil etish, ijodiy muhit yaratish hamda bolalarda tasviriy faoliyatga mehr uyg’otish tarbiyachilar va o’qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev. Yoshlar va ta’lim sohasiga oid nutuqlari va maruzalari. – Rasmiy materiallar (2020-2024 yillar).
2. Yo’ldosheva M. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. Toshkent: O’zbekiston davlat pedagogika universiteti.
3. G’ulomov U. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: “O’qituvchi”, 2017.
4. Ochilev A.Q. Bolalar tasviriy ijodini rivojlantirish metodlari. Toshkent, 2021.